



TOSHKENT SHAHARIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar - avgust






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **13 536** tani tashkil etib, 2022- yil 1-sentabrga nisbatan **2 932** taga kamaygan (o'sish sur'ati **82,2%**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **158** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **13 378** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar- avgust oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi **48055,6** mlrd.so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **111,2 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **20863,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **122,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **27 191,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,7%**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 211,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,8 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	48 055,6	111,2	20 863,7	122,5	27191,9	116,7
<i>tumanlar:</i>						
Ucntepa	4 208,2	104,4	745,9	112,0	3 462,3	115,6
Bektemir	1 740,5	109,7	305,2	74,6	1 435,3	137,0
Yunusobod	5 588,6	103,6	1 950,3	79,2	3 638,3	139,4
Mirzo-Ulug'bek	3 854,1	125,4	2 074,9	159,0	1 779,2	113,2
Mirobod	3 863,7	119,2	2 331,1	133,5	1 532,6	115,3
Shayxontohur	4 670,6	109,0	2 714,9	143,0	1 955,7	92,1
Olmazor	3 750,4	105,4	1 575,5	96,1	2 174,8	127,5
Sergeli	2 705,4	111,6	1 412,4	135,0	1 293,0	105,6
Yakkasaroy	4 437,7	121,2	1 900,1	159,6	2 537,7	115,4
Yashnobod	3 946,9	114,1	1 690,8	125,6	2 256,1	120,1
Yangihayot	728,9	132,5	377,5	145,8	351,5	135,6
Chilonzor	8 560,4	107,7	3 785,1	123,6	4 775,3	109,8

2023- yilning yanvar – avgust oylarida 2022- yilning yanvar- avgust oyiga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (**132,5%**), Mirzo Ulug'bek (**125,4%**), Yakkasaroy (**121,2 %**) va Mirobod (**119,2%**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar - avgust, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **115,1 %** ni yoki **36 206,0** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar – avgust oylari)



2023- yilning yanvar – avgust oyida o'sish sur'ati 111,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **17,8 %** bilan **8 560,4 mlrd.** so'mni tashkil etdi.


Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Yangihayot tumani **1,5 %** bilan **728,9 mlrd.** so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **27 191,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar – avgust oylariga nisbatan **116,7** % ga ko'paydi. Toshkent shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **56,6** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar – avgust oylariga nisbatan **122,5** % ga o'sdi va **20 863,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **43,4** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (**17,6 %**), Yunusobod (**13,4 %**) va Uchtepa (**12,7 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **43,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (**18,1 %**), Shayxontohur (**13,0 %**), Mirobod (**11,2 %**), Mirzo Ulug'bek (**9,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Toshkent shahar	16 136,9	107,8
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	14 260,3	101,7
Bektemir	30 535,1	101,2
Yunusobod	15 128,8	101,2
Mirzo-Ulug'bek	11 855,2	122,0
Mirobod	25 724,0	116,6
Shayxontohur	12 909,4	107,2
Olmazor	9 435,0	102,8
Sergeli	16 536,6	102,6
Yakkasaroy	34 347,8	116,9
Yashnobod	13 512,2	109,8
Yangihayot	4 442,0	124,1
Chilonzor	31 368,3	105,7

2023- yilning yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 16 136,9 ming. so'mni (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 107,8 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (**34 347,8** ming. so'm), Chilonzor (**31 368,3** ming. so'm) va Bektemir(**30 535,1** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Toshkent shahri bo'yicha 2023 - yilning yanvar - avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 211 475,3** mln. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar – avgust oylariga nisbatan **2,5 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 078 999,3** mln. so'mni (**133,5%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **132 476,0** mln. so'mni tashkil etdi (**115,9 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi ulushi, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mln. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mln. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar. tumanlar:	1 211 475,3	116,8	1078999,3	133,5	132476,0	115,9
Uchtepa	110 707,8	116,8	110707,8	2,8 m.	-	-
Bektemir	366 878,3	2,1m.	234461,6	188,2	132416,7	115,9
Yunusobod	117 277,1	87,4	117277,1	64,4	-	-
Mirzo-Ulug'bek	178 492,2	171,1	178492,2	142,0	-	-
Mirobod	60 087,3	113,8	60087,3	5,8 m.	-	-
Shayxontohur	129 839,4	134,8	129839,4	98,6	-	-
Olmazor	31 989,6	73,1	31930,3	88,2	59,3	148,2
Sergeli	46 073,4	107,8	46073,4	164,0	-	-
Yakkasaroy	43 595,4	61,2	43595,4	138,0	-	-
Yashnobod	80 593,7	62,0	80593,7	106,3	-	-
Yangihayot	3 330,5	43,4	3330,5	-	-	-
Chilonzor	42 610,5	48,4	40610,5	173,5	-	-

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar - avgust oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 078 999,3** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**476 155,2** mln.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mln. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	476155,2
	Non va non mahsulotlari	85455,0
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	117941,4
	Tovuq go'shti	121451,9
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	63235,9
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	29880,9
	Tuxum	35456,7
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	3 383,0
	Ziravorlar	78051,1
	Tuzlamalar	25573,5
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	15758,1
	Nooziq-ovqat tovarlari	26656,6

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mln.so'm

2023- yilning yanvar – avgust oylarida Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tumanida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 132476,0 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 110 327,6 mln.so'm, qo'y va echkilar – 19 221,1 mln. so'mni, otlar – 2 868,0 mln. so'mni, parrandalar – 59,4 mln. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mln. so'm
	2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	88 870,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	8 661,5
	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	12 796,1
	Qo'ylar	18 545,7
	Otlar	2 868,0
	Echkilar	675,4
	Kurka, o'rdak, g'oz	31,5
	Tovuqlar	27,9
	Quyionlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 4 553 tani tashkil etib, 2022- yil 1 – sentabr holatiga nisbatan 1 859 taga kamaygan va o‘shir sur‘ati 71,0 % ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 47 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 506 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar – avgust oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi 4 555,3 mlrd.ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 110,6 % ga o‘tdi. Bunda savdo aylanmasining 59,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so‘m	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	4 555,3	110,6	1 829,2	118,1	2 726,1	130,9
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	127,4	114,4	0,6	11,7	126,8	146,9
Bektemir	69,3	106,3	44,0	117,6	25,4	112,6
Yunusobod	590,9	106,8	227,9	135,5	363,0	116,4
Mirzo-Ulug‘bek	450,1	105,9	27,7	96,3	422,5	131,5
Mirobod	335,0	105,1	57,6	124,7	277,4	125,6
Shayxontohur	1 294,6	112,1	982,3	110,4	312,3	145,6
Olmazor	213,9	110,0	16,1	65,2	197,8	143,9
Sergeli	352,7	131,7	276,0	138,2	76,8	139,2
Yakkasaroy	387,0	109,9	48,1	2,2.m.	338,9	126,7
Yashnobod	314,3	111,2	108,1	114,2	206,2	135,5
Yangihayot	69,3	106,1	-	-	69,3	131,4
Chilonzor	350,8	106,7	41,0	126,6	309,7	129,1

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- sentabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) 17 135,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 7 647,5 mlrd. so'm (o'sish sur'ati- 120,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 9488,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 115,2 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	17 135,9	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	576,9	3,4
Bektemir	773,8	4,5
Yunusobod	1 535,8	9,0
Mirzo-Ulug'bek	831,9	4,9
Mirobod	1 331,1	7,8
Shayxontohur	1 741,3	10,2
Olmazor	162,4	0,9
Sergeli	5 336,7	31,1
Yakkasaroy	1 652,9	9,6
Yashnobod	1 315,3	7,7
Yangihayot	1 038,7	6,1
Chilonzor	839,1	4,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Sergeli (**5 336,7** mlrd. so'm), Shayxontohur (**1 741,3** mlrd. so'm) va Yunusobod (**1 535,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Toshkent shahar bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 96 445,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 113,1% ga o'sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 61 889,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shahrida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 64,2 % ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Sergeli (**33,4b.**), Yashobod (**26,4b.**) va Yangihayot (**27,9b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **15 998** tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabr holatiga nisbatan **741** taga kamaygan, o'sish sur'ati **95,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **245** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **15 753** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonala r mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – avgust oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahar .	96 445,6	113,1	34 556,5	129,2	61 889,1	105,8
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	5 832,8	103,0	527,4	84,6	5 305,4	91,0
Bektemir	1 172,3	122,6	100,1	15,8 m.	1 072,2	91,5
Yunusobod	8 354,4	115,8	2 861,7	133,5	5 492,6	65,7
Mirzo-Ulug'bek	8 129,7	107,6	1 962,8	129,4	6 167,0	75,9
Mirobod	11 483,8	120,1	2106,7	134,8	9 377,1	81,7
Shayxontohur	5 597,7	108,2	1 504,1	100,0	4 093,5	73,1
Olmazor	13 691,4	108,8	6 294,0	117,7	7 397,4	54,0
Sergeli	4 726,1	133,4	2 644,6	2,3 m.	2 081,5	44,0
Yakkasaroy	10 949,7	100,9	4 433,5	110,7	6 516,2	59,5
Yashnobod	13 362,5	126,4	7 822,2	151,1	5 540,3	41,5
Yangihayot	918,8	127,9	327,8	182,3	591,0	64,3
Chilonzor	2 226,5	112,6	3 971,6	112,6	8 254,9	67,5



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-202-88-21 (20)**